



QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TENDENSIYALARI

Inamov R N

Davlat kadastrlari agentligi boshqarma boshlig'i

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Unda yer resurslarini boshqarish, ularning unumdorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda raqamli texnologiyalar (GIS, masofadan zondlash) yordamida monitoringni yo'lga qo'yish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, iqlim o'zgarishi kabi global muammolar fonida qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilgan va O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'z: *yer resurslari, qishloq xo'jaligi, samarali foydalanish, GIS texnologiyasi, masofadan zondlash, yer unumdorligi, ekologik barqarorlik, suv resurslari, yer degradatsiyasi, raqamli monitoring*

KIRISH

Respublikamiz agrar sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi va belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda ushbu davrda qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish jarayoni bevosita yer-suv resurslarining tarkibiy-miqdoriy jihatdan o'zgarish tendensiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Mazkur tendensiyaning tadqiq etish sug'orma dehqonchilikdan intensiv ravishda foydalanish dolzarblik kasb etib turgan hozirgi kunda global iqlim o'zgarishi, mamlakatdagi demografik holat, qishloqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai-nazaridan muhim sanaladi.

Shu sababdan ushbu tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida birinchi navbatda mustaqillik yillarida tizimda yer fondi tarkibidagi o'zgarishlar, suv resurslarining shakllanishi va undan foydalanish jarayonidagi kuzatiladigan hamda ularning asosiy va ustuvor yo'nalishlari tendensiyalarini aniqlashga qaratildi.

Islohot yillari davomida qishloq xo'jalik yerlari hajmi kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 1990 yilda bu yerlar 28080,4 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 25601,0 ming gektarga tushib qolgan, ya'ni 8,8 foizga kamaygan. Buning asosiy sababi qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarning bir qismi kasb-hunar kollejlari va sanoat korxonalarini qurishga, o'rmon fondi yerlarini kengaytirishga, tabiatni muhofaza qilish va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarni kengaytirishga hamda aholini uy-joyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida aholi yashash punktlariga yer ajratilganligidir.

1-jadval



Respublika qishloq xo'jaligi yer turlarining foydalanish maqsadlariga ko'ra taqsimlanishi (ming ga)¹

Ekin turlari	Yillar			2023 yil 1990 yilga nisbatan, %
	1990	2020	2023	
Jami ekin maydoni	3407,3	3308,3	3279,4	96,2
1. Donli ekinlar, jami	423,6	1087,2	1655,4	3.9 marta
Jamiga nisbatan, %	12,4	32,9	50,5	x
Shu jumladan:				
- Boshqoli don	183,9	1031,6	1126,2	6.1 marta
Jamiga nisbatan, %	5,4	31,2	34,3	x
- Makkajo'xori doni	90,7	36,9	21,1	23,3
Jamiga nisbatan, %	2,7	1,1	0,6	x
- Sholi	143,5	110,6	61,6	43
Jamiga nisbatan, %	4,2	3,3	42,9	x
2. Texnik ekinlar, jami	1863	1477,4	1371,9	73,6
Jamiga nisbatan, %	54,7	44,6	41,8	x
Shu jumladan:				
- Paxta	1827,9	1492,7	1190,8	65,1
Jamiga nisbatan, %	54	45,1	3,6	x
3. Ozuqa ekinlari, jami	978,6	338,5	246,8	25,2
Jamiga nisbatan, %	28,7	10,2	7,5	x
Shu jumladan:				
- Makkajo'xori silos uchun	165	176,1	150,3	91
Jamiga nisbatan, %	4,8	5,3	4,6	x
- Beda	616,9	82,7	220	35,7
Jamiga nisbatan, %	18,1	2,3	13,3	x

Bizning fikrimizcha, sug'oriladigan mintaqadagi bo'z yerlar sug'oriladigan ekin yerlar chegaralarida kichik uchastkalar holatida joylashganligi sababli ularni sug'orish va kollektor shaxobchalari bilan ta'minlanishi bo'yicha tegishli meliorativ choratadbirlar amalga oshirilishi bu yerlar-ning holatini qayta tiklanish hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish aylanmasi (oboroti)ga qaytarilishi imkonini yaratadi.

Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish nuqtai nazardan qishloq xo'jalik yerlarining xo'jalik maqsadida foydalanishiga ko'ra tarkibini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda sug'oriladigan yerlar alohida o'rin tutadi, chunki, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan mana shu yerlar hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, tahlil qilinayotgan yillarda ekin yerlar toifasidagi sug'oriladigan yerlarning ulushi 2023-yilda 1990-yilga nisbatan 4,3 foizga kamaygan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarining tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikada qishloq xo'jaligi yerlarining asosiy qismi yaylov va pichanzorlar hissasiga

¹ O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



to'g'ri keladi. Bu, eng avvalo, hududlarning geografik joylashuvi va hududiy xususiyatlari bilan bog'liq. Zotan respublikamiz hududining asosiy qismini tog' va tog'oldi zonalarini hamda cho'llar va chala cho'llar tashkil etadi. Mazkur turdagi yerlarning jami qishloq xo'jaligi yerlaridagi salmog'i 1990-yilda 83,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 82,4 foizga teng bo'lgan.

Respublika qishloq xo'jaligida haydaladigan yerlar o'ziga xos muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning jami qishloq xo'jaligi yerlaridagi ulushi 2023-yilda 15,7 foizni tashkil qilgan. Haydaladigan ekin yerlarining 1990-yilda 87,9 foizi, 2023-yilda esa 87,3 foizi sug'oriladigan yerlar hisobiga to'g'ri kelgan. Lalmi yerlar ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muhim sanalib, jami qishloq xo'jaligi ekin yerlari tarkibida o'rtacha 14,3 foizni tashkil etadi.

Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng qishloq xo'jalik ekinlar strukturasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, donli ekin maydonlari jami ekin maydonining 1990-yilda 12,4 foizini egallagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 50,5 foizni tashkil qilgan, ya'ni mazkur yillarda donli ekin maydoni 3,9 marta, boshqoli don ekinlari maydoni esa 6,1 martaga oshganligini ko'rsatadi. Buning asosiy sababi hukumatimiz tomonidan mustaqillikka erishilgan dastlabki kundan boshlab, aholini o'zimizda yetishtirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bosh vazifa qilib belgilanganligi bilan izohlanadi (2-jadval).

2-jadval

Sug'oriladigan ekin maydonlarida qishloq xo'jalik ekinlar tarkibining o'zgarish dinamikasi (1990-2023 yillar)² ming, ga

Ekin turlari	1990	2020	2023	2023 yil 1990 yilga nisbatan, %
Jami ekin maydoni	3407,3	3308,3	3279,4	96,2
Donli ekinlar, jami	423,6	1087,2	1655,4	3.9 marta
- Boshqoli don	183,9	1031,6	1126,2	6.1 marta
- Makkajo'xori doni	90,7	36,9	21,1	23,3
- Sholi	143,5	110,6	61,6	43
Texnik ekinlar, jami	1863	1477,4	1371,9	73,6
- Paxta	1827,9	1492,7	1190,8	65,1
Ozuqa ekinlari, jami	976,8	338,5	246,8	25,2
- Makkajo'xori silos uchun	165	176,1	150,3	91
- Beda	616,9	82,7	220	35,7

Shunga muvofiq ravishda texnik ekinlar maydoni, xususan paxta ekin maydonlari 491,1 ming gektarga, ya'ni mos ravishda 26,4 foizga kamaygan. Shuningdek, sholi ekin

² Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



maydoni 81,9 ming gektarga, ozuqa ekinlari maydoni esa qariyb 4 barobarga qisqartirilgan. Ya'ni, 1990 yilda jami ekin may-donlarining 28,7 foizini (976,8 ming ga) ozuqa ekinlari egallagan bo'lsa, 2020 yilda uning hisssasi 5,3 foizga, 2023 yilga kelib esa 7,5 foizga (246,8 ming ga) to'g'ri kelmoqda. Mazkur holat respublikada chorvachilikni rivojlantirishga to'siq bo'lishga hamda mavjud sug'oriladigan yerlarning tuproq unumdorligini ma'lum darajada pasayishiga olib keldi.

Umuman olganda yuqorida sanab o'tilgan holat va omillar ta'sirida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida va, shuningdek, bizga qo'shni bo'lgan ko'pchilik davlatlarda ham qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishga sarflanayotgan suv hali ham ancha ko'pligini ko'rish mumkin va uni ekinlarni tomchilatib sug'orish tizimi keng miqyosda qo'llaniladigan Isroil davlatining ko'rsatkichlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, qanchalik katta imkoniyatlarga ega ekanligimiz ko'rinadi. Suv tejash tizimini joriy etish orqali mintaqada mavjud suv resurslari miqdori o'zgarmagan holda ham yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini eng kamida ikki martaga oshirish mumkinligidan dalolat beradi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston va xorijiy davlatlar sug'orma dexqonchiligida
bir kompleks gektar uchun suv sarfi miqdori³

Davlatlar nomlari	Suv sarfi miqdori, m ³ /ga	Isroil davlati ko'rsatkichiga nisbatan, (%)
Isroil	6 000,0	100,0
Qozog'iston	25 000,0	416,7
Turkmaniston	15 000,0	250,0
O'zbekiston	12 000,0	200,0

Qishloq xo'jaligida suv sarfining yuqoriligi ko'pincha faqatgina suv sarfi bilan o'lchanadi. Ammo, ortiqcha suv sarfi hisobiga paydo bo'ladigan ko'plab qo'shimcha salbiy natijalar ham borki, ular ham e'tiborga olinishi lozim. Jumladan, ekin maydonlarida sizot suvlar sathi ko'tarilishi, tuproqning ikkilamchi sho'rlanishi asosan ortiqcha suv sarfi natijasida yuz beradi. Natijada ekin maydonlari sho'rini yuvishga ham ko'p miqdordagi suv sarfi talab etiladi.

Umuman olganda, yer resurslarini kengaytirish suv resurslariga bog'liqligi va umuman cheklanganligi tufayli uni faqat muayyan miqdorgacha o'zlashtirish mumkin, xolos. Bu holat respublikamizning arid mintaqasiga joylashganlik xususiyati bilan bevosita bog'liqdir. Suv resurslarining cheklanganligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holat mamlakatimiz qishloq xo'jaligida

³ Шохўжаева З. Қишлоқ хўжалигида сув ресурсларидан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари: и.ф.н. илм. дар. олиш учун ёз. дисс. – Тошкент: ЎзБМА, 2010. – 104-108 б.



turli mulkka asoslangan xo'jaliklar faoliyat ko'rsatishiga qaramasdan suv resurslari va suv inshootlari xususiy mulk sifatida taqsimlash imkoniyatini cheklaydi.

Umuman olganda, respublikada sug'oriladigan yerlarning tuproq sifati viloyatlar kesimida turli darajadagi baholash ko'rsatkichlariga ega bo'lib, bu o'z navbatida ekinlarni joylashtirish va ulardan yuqori hosil olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PF5742-sonli farmoni. T.: O'zbekiston, 2019 – 10 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi № 60-sonli farmoni. T.: O'zbekiston, 2022 – 318 b.
3. Usmanov Yu.A. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari yerlaridan foydalanish muammolari: Monografiya.–T.:«TIQXMMI», 2019.–100 b.
4. Latipov A. Yerdan foydalanish va soliq solish.–T.:«Iqtisodiyot va huquq dunyosi»,–2005 y.
5. Muxtorov A.X. Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting xizmati ko'rsatishni tashkil etish (amaliy qo'llanma).–T.: «Adabiyot uchqunlari»,–2016. b
6. Jo'raev A va boshq. Agrar sohada islohotlarni yanda chuqurlashtirish muammolari va yechimlari. T.: Mexnat, 2002-209 b.